

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Sh.Do'saliyeva, R.B.Karabayeva <i>Allium suworowii</i> o'simligi tarkibidagi saponinlarning sifat tahlili	7
J.E.Shamshiyev, O.M.Nazarov, T.Sh.Amirova Mahalliy vinolarning flavonoidlar va suvda eruvchan vitaminlar tarkibi tahlili	10
F.X.Bo'riyev, S.S.Abduraxmanova, O.E.Ziyadullayev, F.Qo'shbaqov Ayrim atsetilen spirtlar asosida α -yod, α,β -to'yinmagan ketonlar sintezi	15
M.Z.Nomozova, L.S.Kamolov, I.Nakhatov, N.N.Umirov, D.O.Ahmadova Secondary metabolites of the fungus <i>Trichoderma asperellum</i> and their biological importance	22
Q.M.Sherg'oziyev, Sh.X.Karimov <i>Anabasis aphylla</i> L. o'simligining flavonoid tarkibi tahlili	28
G.A.Abdullaeva, Sh.Sh.Damionova, Sh.Sh.Turgunbaev Синтез и исследование комплексного соединения Zn (II) с дифенилтиокарбазоном	32
M.M.Mamanazarov, E.Y.Yalgashev, L.A.Azimov, D.I.Abduvokhidov, J.I.Razzokov Gliding-arc plasma regeneration of industrial ca-zeolite adsorbents	39
G.D.Axmadjonova, O.M.Nazarov, X.N.Saminov <i>Mirabilis jalapa</i> L. o'simligining aminokislota va fenol birikmalari tarkibini o'rganish	46
I.R.Asqarov, Sh.M.Qirg'izov, S.T.Jalilova Evaluation of the antiradical properties of bay leaf	52
Sh.M.Kirgizov, M.M.Muminov, D.S.Turgunova Antioxidant activity of a mixture of gleditsia and ailanthus flowers	57
D.A.Ga'furova, X.G.Kurbonov, M.K.Rustamov, H.M.Yusupova, D.N.Shaxidova Получение анионитов на основе поливинил хлорида для сорбции ионов молибдена (VI)	64
S.Y.Xushvaqov, K.A.Qodirova, D.J.Bekchanov Tarkibida amino va sulfoguruh tutgan funksional ion almashinuvchi polimer materiallarga brom ionlarining sorbsiyasi	73
T.Sh.Amirova Matolarning kimyoviy tarkibiga ko'ra sertifikatlash va tasniflashning dolzarb muammolari	80
T.Sh.Amirova Ipak matolarining iq spektri tahlili va kimyoviy xossalari	84
F.M.Turaqulov, X.E.Yunusov, S.S.Yarmatov, X.I.Burxonova, A.A.Sarimsaqov Karboksimetilsellyuloza va seritsin asosida biokompozit gidrogelning olinishi va xossalari	89
N.T.Qaxxorov, R.S.Jo'rayev, O'M.Mardonov "Dautosh" koni menirali lazerli difraktsiya usulida tekshirish va tarkibini o'rganish	98

BIOLOGIYA

M.P.Yuldashova, M.A.Djo'rabaeva Baliqchilik ho'jaligi suvlarini sifat ko'rsatgichlarini aniqlashda indikator - saprob suvo'tlaridan foydalanish	105
M.P.Yuldashova Farg'ona vodiysi ayrim kanallari suvini sifat ko'rsatgichini aniqlashda indikator - saprob suvo'tlaridan foydalanish	109
A.Q.Buronov O'zbekistondagi qadimiy mahalliy bug'doy navlarida oqsil tarkibiga ma'sul nam-1 genlarini molekulyar markerlar yordamida o'rganish	113
M.X.Akbarova Farg'ona vodiysida tarqalgan <i>Scutellaria</i> L. turkumi turlarining petrofil florosenotiplarda tarqalishi	119
B.A.Abdualiyev Uy parrandalarining gelmintlar bilan zararlanishida yovvoyi qushlarning roli	127



UO'K: 619:616.995:636.5

UY PARRANDALARINING GELMINTLAR BILAN ZARARLANISHIDA YOVVOYI QUSHLARNING ROLI

РОЛЬ ДИКИХ ПТИЦ В ЗАРАЖЕНИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПТИЦЫ ГЕЛЬМИНТАМИ

THE ROLE OF WILD BIRDS IN HELMINTH INFECTIONS OF DOMESTIC POULTRY

Abduvaliyev Bahtiyorjon Avazbekovich 

Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona b.f.f.d. (PhD)., FarDU dotsenti v.b.

Annotatsiya

Gelmintlarning tarqalishida yovvoyi qushlar ham muhim rol o'ynaydi. Yovvoyi qushlar ko'plab gelmintlarning tashuvchisi sifatida xizmat qilib, parrandalar orasida kasalliklarning keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Shu sababli, uy parrandalarida gelmintlar bilan zararlantirishda yovvoyi qushlarning roli haqida tadqiqotlar olib borish va profilaktik choralarini ko'rish zarur.

Аннотация

В статье изложена роль диких птиц в распространении гельминтов среди домашней птицы в Ферганской долине в 2021–2024 гг. Проведены полевые наблюдения и морфологический анализ желудочно-кишечных образцов в лабораторных условиях. Зафиксирована передача *Davainea proglottina*, *Raillietina tetragona*, *Echinostoma revolutum* и *Ascaridia galli*. Результаты обосновывают меры биобезопасности, контроля промежуточных хозяев и профилактики.

Abstract

This article describes the role of wild birds in the spread of helminths among domestic poultry in the Fergana Valley during 2021–2024. Field observations and laboratory morphological analyses of gastrointestinal samples were conducted. Transmission of *Davainea proglottina*, *Raillietina tetragona*, *Echinostoma revolutum*, and *Ascaridia galli* was recorded. The findings inform biosecurity, control of intermediate hosts, and the design of preventive measures.

Kalit so'zlar: yovvoyi qushlar; uy parrandalari; *Davainea proglottina*; *Raillietina tetragona*.

Ключевые слова: дикие птицы; домашняя птица; *Davainea proglottina*; *Raillietina tetragona*.

Key words: wild birds; domestic fowl; *Davainea proglottina*; *Raillietina tetragona*.

KIRISH

Parrandachilik sohasi qishloq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uy parrandalarini parvarishlash ulardan mahsulot olish aholi xonodonlarining daromad manbalaridan biridir. Biroq, uy parrandalari ko'plab yuqumli kasalliklar, xususan gelmintozlar bilan zararlantirishi mumkin. Gelmintlar — turli xil parazit organizmlar bo'lib, ular parrandalar oranzimida yashab, ularning mahsuldorligiga va sog'lig'iga zarar yetkazadi.

Migratsiya qiladigan qushlarning, shuningdek ko'pincha kasal va holsizlangan qushlarning qishlab qolishi invaziyaning hosil bo'lishiga olib kelishi va respublika parrandachiligiga iqtisodiy zarar keltirishi, shuningdek, aholi tomonidan boqiladigan uy parrandalariga sezilarli zarar keltirishi mumkin. Shuningdek, O'zbekistonda qulay iqlim sharoiti ko'plab qushlarning turlar soni ortishiga sabab bo'layotgani va hatto ba'zi qushlarning sinantrop turlarga aylanishini ko'rish mumkin. Ikkinchi tomondan, mavsumiy haroratning yuqori bo'lishi oraliq xo'jayinlarning ko'plab sonda uchrashi, ularning populyatsiya soni ortishiga sabab bo'ladi, bu esa definitiv xo'jayinning gelmintozlar bilan zararlantirishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlari 2021-2024 yillar davomida Farg'ona vodiysining (Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari) tabiiy-geografik hududlarida, aholi xonadonlari, fermer xo'jaliklarida parvarish qilinadigan erkin xolda boqiladigan uy parrandalari va ba'zi yovvoyi qushlarda olib borildi.

Buning uchun biologik material yig'ildi va tahlil qilindi. Jumladan, yovvoyi qushlar va uy parrandalardan olingan biologik materiallar (masalan, oshqozon-ichak tarkibi) to'plandi.

NATIJALAR

Qushlar oshqozoni va ichaklarini yorib ko'rish va undagi parazitlarni ajratib olish texnikasi qo'llanildi. Bunda parazitlar mikroskop ostida morfologik jihatdan tahlil qilindi. Masalan, *Davainea proglottina* va *Echinostoma revolutum* turlari morfologik xususiyatlariga qarab aniqlandi. *Davainea proglottina* yovvoyi bedanadan tovuqqa yuqishi kuzatildi va bu parazit tovuq ichaklarida epizootik holatni hosil qilib, xazm qilish tizimini izdan chiqarishi qayd etildi. Bu to'g'ridan to'g'ri laboratoriya tahlillarida aniqlandi.

Bundan tashqari, gelmintlarning hayotiy davrida oraliq xo'jayin sifatida qatnashuvchi yovvoyi qushlar va ularning ekotizimdagi o'rni aniqlandi. Jumladan, bir hovlidagi tovuq va kaptarning yashash muhiti bir xil ekanligi tahlil qilinib, parazitlarning transmissiya imkoniyati kuzatildi. Mikroskopik tahlil orqali gelmint tuxumlarining ikki tur orasidagi aloqadorligi qayd etildi. Masalan, *Raillietina tetragona* gelminti yovvoyi ko'k kaptarda rivojlanib, tovuqlarga ham ular orqali yuqishi ma'lum bo'ldi. Bunda ko'k kaptar hayotiy siklda asosiy vositachi bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, Farg'ona vodiysi sharoitida yashovchi yovvoyi qirg'ovullar va maynalarda *Echinostoma revolutum* gelminti mavjudligi qayd etildi. Ushbu tur suvo'tlar va salqin suv havzalari yaqinida ko'p uchraydi. Qushlar bir hududda yashab, ozuqa zanjirida bir xil oziqlanishi tufayli gelmintlarning tovuq yoki o'rdaklarga yuqishiga sabab bo'lganligi xulosa qilindi.

Yig'ilgan materiallar asosida Farg'ona vodiysi sharoitida yovvoyi qushlardan uy parrandalariga qator tur gelmint o'tishi aniqlangan bo'lib, quyidagilar havfli gelmintlar sifatida qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

Uy parrandalarida gelmintlarni tarqalishida qatnashadigan yovvoyi qushlar

T.r.	Gelmint turi	Yovvoyi qushlar	Uy parrandalari
	Cestoda		
1	<i>Davainea proglottina</i>	Bedana, musicha	Tovuq
2	<i>Raillietina tetragona</i>	Yovvoyi ko'k kaptar	Tovuq
3	<i>Skriabinia cesticillus</i>	Yovvoyi ko'k kaptar	Tovuq
4	<i>Raillietina penetrans</i>	G'urrak, qirg'ovul	Tovuq
5	<i>Choanotaenia infundibulum</i>	Qirg'ovul, mayna	Tovuq
6	<i>Amoebotaenia sphenoides</i>	Qarg'a, qirg'ovul	Tovuq
7	<i>Echinolepis cariosa</i>	Mayna, chug'urchuq	Tovuq
8	<i>Tetrathyridium variabile</i>	Mayna	Tovuq, o'rdak
9	<i>Sobolevicanthus gracilis</i>	Chug'urchuq	O'rdak
	Trematoda		
10	<i>Echinostoma revolutum</i>	Suqsur, marmar churрак, qarg'a	O'rdak
11	<i>Echinostoma robustum</i>	Katta qoravoy	Tovuq, o'rdak
12	<i>Brachylaemus fuscatus</i>	Kaklik	O'rdak
13	<i>Prosthogonimus ovatus</i>	Qirg'ovul, chug'urchuq	Tovuq, o'rdak
14	<i>Notocotylus attenuatus</i>	Suqsun, olaqanotli suqsur	O'rdak
	Nematoda		
15	<i>Ascaridia galli</i>	Qirg'ovul, bedana, kaklik, ko'k kaptar	Tovuq
16	<i>Heterakis gallinarum</i>	Bedana, g'urrak, qirg'ovul	Tovuq
17	<i>Capillaria obsignata</i>	Sassiқpopishak, qarg'a, mayna	Tovuq
18	<i>Cheilospirura hamulosa</i>	Suqsur, qirg'ovul	O'rdak

19	<i>Dispharynx nasuta</i>	Qarg'a, sassiqpopishak, qoray-aloq	Tovuq
20	<i>Tetrameres fissispina</i>	Marmar churрак, suqsur	O'rdak
21	<i>Dispharynx spiralis</i>	Kaklik, bedana, mayna	Tovuq
22	<i>Subulura suctoria</i>	Qirg'ovul, bedana, kaklik	Tovuq
23	<i>Ascaridia alectoris</i>	Bedana, kaklik, ko'k kaptar	Tovuq

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar Farg'ona vodiysi sharoitida yovvoyi qushlar uy parrandalari orasida gelmintozlarning tarqalishida muhim epidemiologik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Yovvoyi qushlar *Davainea proglottina*, *Raillietina tetragona*, *Echinostoma revolutum* va *Ascaridia galli* kabi gelmintlarning tabiiy rezervuari hamda tashuvchisi bo'lib xizmat qiladi. Ularning migratsion faolligi va oraliq xo'jayinlar bilan o'zaro aloqasi parrandachilik xo'jaliklarida infeksiya manbaini kengaytiradi. Shuning uchun yovvoyi qushlar populyatsiyasini ekologik monitoring qilish, bioxavfsizlik qoidalariga rioya etish hamda profilaktik dori vositalarini qo'llash gelmintozlarni kamaytirishda asosiy omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduvaliyev B.A. Farg'ona vodiysi uy parrandalari gelmintlarining faunasi va ekologiyasi. Biol. fan. fals. dokt. diss... (PhD). -Farg'ona, 2025. – 137 b.
2. Скрыбин К.И. Метод полного и неполного гельминтологического вскрытия животных / К. И. Скрыбин. М. : МГУ. – 1928. – С. 4–19.
3. Zokirov I.I., Abduvaliyev B.A. Farg'ona tumanining yovvoyi qushlari va uy parrandalari ko'p uchraydigan gelmintlar haqida // International scientific journal science and innovation. Special issue "Actual issues of agricultural development: Problems and solutions", June 2023. 72-74 b.
4. Siddiqui T.R., Hoque M.R., Roy B.C. va boshq. "Morphological and phylogenetic analysis of *Raillietina* spp. in indigenous chickens (*Gallus gallus domesticus*) in Bangladesh." *Saudi J. Biol. Sci.*, 30(10): 103784, 2023. DOI:10.1016/j.sjbs.2023.103784.